KOKAND UNIVERSITY HERALD SCIENTIFIC E-JOURNAL
ISSN: 2181-1695

QO‘QON UNIVERSITETI XABARNOMASI
KOKAND UNIVERSITY HERALD
ВЕСТНИК КОКАНДСКОГО УНИВЕРСИТЕТА

OAK: 01-08/1819/6

www.herald.kokanduni.uz

GIBRID TA’LIM MUHITIDA TALABALARNING INGLIZ TILIDAN DISKURSIV KOMPETENSIYASINI METODIK TAKOMILLASHTIRISH

Muminova Nasiba Solijon qizi,
Toshkent amaliy fanlar universiteti Xorijiy til va adabiyoti kafedrasi dotsenti v.b., f.f.f.d.
Orcid.org/0009-0009-2347-9353
nasiba_9095@inbox.ru
DOI: https://doi.org/10.54613/2y09h651

MAQOLA HAQIDA/ О СТАТЬЕ

Qabul qilindi: 6-noyabr 2026-yil
Tasdiqlandi: 9-noyabr 2026-yil
Jurnal soni: 20-A
Maqola raqami: 7

KALIT SO‘ZLAR/ КЛЮЧЕВЫЕ СЛОВА

Gibrid ta’lim, gibrid ta’lim muhiti, ingliz tili, diskursiv kompetensiya, ingliz tili ta’limi, o‘quv topshiriqlari, integratsion-metodik yondashuv, metodik, didaktik, pedagogik talab, modulli ta’lim, innovatsion ta’lim texnologiyalari, metodik yondashuv

ANNOTATSIYA/ АННОТАЦИЯ

Mazkur maqola gibrid ta’lim muhitida talabalarning ingliz tilidan diskursiv kompetensiyasini takomillashtirishning pedagogik va ilmiy-metodik zaruratlarini asoslash, savol va topshiriq bilan birga ingliz tili fanlaridan topshiriqlar tuzishning ilmiy-nazariy asoslarini o‘qitishda darslik va o‘quv reja tushunchasini kiritish, didaktik yondashuv asosida tavsiflash hamda ularni vazifasi nuqtai nazardan tasniflash, amaliyotga tatbiq qilish, ingliz tili ta’lim mazmunini o‘qitish metodikasi bo‘yicha takomillashtirishda o‘quv topshiriqlar tizimini yaratish va ulardan foydalanish hamda innovatsion ta’lim texnologiyalar orqali gibrid ta’lim muhitida talabalarning ingliz tilidan diskursiv kompetensiyasini takomillashtirish metodikasiga bag‘ishlangan. Shuningdek, maqolada modulli ta’lim texnologiyalarini gibrid ta’lim muhiti bilan integratsiyalashning didaktik imkoniyatlari, o‘quv jarayonida sinxron va asinxron ta’lim shakllaridan samarali foydalanish mexanizmlari hamda talabalarning mustaqil ta’lim faoliyatini tashkil etish xususiyatlari ochib beriladi. Diskursiv kompetensiyani rivojlantirishda matn mazmunini anglash, fikrlarni mantiqiy izchillikda ifodalash, kommunikativ vaziyatga mos nutqiy strategiyalarni tanlash va turli muloqot sharoitlarida mustaqil diskurs yaratish ko‘nikmalariga alohida e’tibor qaratiladi. Shuningdek, innovatsion raqamli resurslar, audiovizual materiallar va interaktiv o‘quv topshiriqlarining ta’lim mazmunini boyitishdagi o‘rni asoslanib, modulli ta’lim asosida ishlab chiqilgan metodik tizimning amaliy ahamiyati yoritiladi. Mazkur yondashuv talabalarning ingliz tilida mustaqil fikrlashi, kommunikativ faolligi va diskursiv kompetensiyasini izchil rivojlantirishga xizmat qiladi.

ABOUT THE PAPER

Accepted: 6 November 2026
Approved: 9 November 2026
Volume: 20-A
Paper number: 7

KEYWORDS

hybrid learning, hybrid learning environment, English language, discursive competence, English language education, learning assignments, integrative-methodological approach, methodology, didactics, pedagogical requirements, modular learning, innovative educational technologies, methodological approach

ANNOTATION

This article is devoted to substantiating the pedagogical and scientific-methodological necessity of improving students’ discursive competence in English within a hybrid learning environment. It examines the scientific and theoretical foundations for developing questions and assignments in English language subjects, introduces and characterizes the concepts of textbooks and curricula from a didactic perspective, and classifies them according to their functions and practical applications. Furthermore, the study focuses on developing a system of learning tasks and exploring their effective use in improving the methodology of teaching English language content. Particular attention is paid to the development of a methodology for enhancing students’ discursive competence in English through innovative educational technologies in a hybrid learning environment. Furthermore, the article explores the didactic potential of integrating modular learning technologies into a hybrid learning environment, the mechanisms for effectively employing synchronous and asynchronous learning formats, and the specific features of organizing students’ independent learning activities. Particular attention is paid to developing discursive competence through understanding textual content, expressing ideas coherently and logically, selecting appropriate speech strategies according to communicative situations, and creating independent discourse in various communication contexts. The article also substantiates the role of innovative digital resources, audiovisual materials, and interactive learning tasks in enriching educational content and highlights the practical significance of a methodological system developed on the basis of modular learning. This approach contributes to the systematic development of students’ independent thinking, communicative engagement, and discursive competence in English.

Kirish

Gibrid ta’lim muhitida talabalarning ingliz tilidan diskursiv kompetensiyasini muammoli texnologiyalar asosida rivojlantirish metodikasiga oid qarashlar O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi”da oliy ta’lim jarayonlariga raqamli texnologiyalarni, zamonaviy o‘qitish usullarini joriy etish, yoshlarni ilmiy faoliyatga keng jalb etish, kredit-modul tizimini joriy etish, o‘quv rejalarida amaliy ko‘nikmalarni oshirishga qaratilgan mutaxassislik fanlari bo‘yicha amaliy mashg‘ulotlar ulushini oshirish bo‘yicha aniq vazifalar belgilab berilgan. Mamlakatdagi oliy ta’lim muassasalarining 85% foizi 2030-yilgacha bosqichma-bosqich kredit-modul tizimiga o‘tishi rejalashtirilgan.

Bu yaqin yillar davomida mamlakatdagi deyarli barcha oliy ta'lim muassasalarining kredit-modul tizimida faoliyat yurita boshlashidan darak beradi. Barcha sohalarda shiddat bilan rivojlanayotgani islohotlarni mamlakatimizning jahon sivilizatsiyasi yetakchilari qatoriga kirish yo'lida sifatli ilgarilashini ta'minlaydigan zamonaviy innovatsion g'oyalar, texnologiyalarga asoslangan holda amalga oshirishni taqozo etadi [13, 15-29-b].

Bugun ta'limga modul termini kirib keldi. Pedagogikada modul – bu o'quv materialining mantiqan tugallangan birligi. Modul – bu fanning o'zaro bog'liq bo'lgan fundamental tushunchalarini o'rganishga qaratilgan, didaktik tamoyil asosida tuzilgan o'quv materiallari birligidir. Modulli ta'lim pedagogik texnologiyani tashkil etuvchi tarkibiy bo'laklarni ifodalaydi. Modul lotincha "modulus" so'zidan olingan bo'lib, "qism", "bo'lak", "blok" ma'nolarini anglatadi. Ushbu ta'lim texnologiyasi dars mashg'uloti jarayonini tashkil etishdagi eng kichik ish turlaridan, ularning turli miqdordagi to'plamlaridan iborat bo'ladi. Bunda eng kichik faoliyat turi eng kichik modul sanalib, boshqalari qancha modulni qamrab olishiga qarab, o'ziga mos darajadagi modullar sanaladi. Modulli o'qitish texnologiyasi pedagogik texnologiyaning tarkibiy qismi sifatida ta'lim jarayoniga tobora kengroq qo'llanilmoqda. Pedagogik texnologiyaning milliy modelini ta'lim-tarbiya jarayoniga tatbiq etish yo'lida ingliz btili o'quv fanlari dars mashg'ulotlarini modulli texnologiya asosida loyihalarini Gibrid ta'lim muhitida talabalarning ingliz tilidan diskursiv kompetensiyasini innovatsion texnologiyalar asosida rivojlantirish dolzarb masalasidir [13, 45-52-b].

Adabiyotlar tahlili

Pedagogik adabiyotlarda "modulli o'qitish" termini xalqaro tushuncha bo'lib, uning bitta ma'nosi – faoliyat ko'rsata oladigan o'zaro chambarchas bog'liq elementlardan iborat bo'lgan tugunni bildiradi. Bu ma'noda u modulli o'qitishning asosiy vositasi sifatida, tugallangan axborot bloki sifatida tushuniladi. Modulli o'qitish, asosan, inson bosh miyasi to'qimalarining modulli tashkil etilganligiga tayanadi. Inson miyasi ham modulli tugunlardan tashkil topgan bo'lib axborotlar ana shu modullarda assotsiatsiyalashadi, deyiladi.

V.V. Slastenin, G.K. Selevko, M.V. Klarin va V.V. Serikovlarning pedagogik texnologiyalar sohasidagi ilmiy qarashlarida ta'lim jarayonini loyihalashtirish, o'quv faoliyatini tizimli tashkil etish hamda ta'lim oluvchining mustaqil bilish faoliyatini faollashtirish masalalari muhim o'rin egallaydi. Mazkur olimlarning yondashuvlarida pedagogik texnologiyalarning samaradorligi ta'lim maqsadlarining aniqligi, o'quv materiallarining izchilligi va o'zlashtirish darajasini nazorat qilish mexanizmlari bilan bog'liq holda talqin qilinadi.

Xorijiy tillarni o'qitish metodikasida D. Nunan kommunikativ va topshiriqqa asoslangan ta'lim yondashuvlarini rivojlantirib, til o'rganuvchilarning real nutqiy vaziyatlarda faol ishtirok etishi, mustaqil fikr bildirishi va kommunikativ vazifalarni bajarishiga alohida e'tibor qaratadi [4, 10-b.]. M. Rivers chet tilini o'qitishda nutqiy faoliyat turlarini o'zaro bog'liq holda rivojlantirish, til materiallarini amaliy muloqot bilan uyg'unlashtirish zarurligini asoslaydi [5, 403-b.]. J.J. Jalolovning ilmiy-metodik qarashlarida esa chet tilini o'qitishning nazariy asoslari, ta'lim metodlari, vositalari va tashkiliy shakllarining o'zaro aloqadorligi yoritilgan [2, 277–279-b.].

Mahalliy olimlardan G.T. Mahkamova ingliz tilini o'qitishda innovatsion pedagogik texnologiyalarning didaktik imkoniyatlari, ularni ta'lim jarayoniga tatbiq etish bosqichlari va o'quv faoliyatini takomillashtirish masalalarini tadqiq etgan [13, 45–52-b.]. N.X. Kushiyevaning ilmiy izlanishlarida ingliz tilini o'qitishda zamonaviy pedagogik yondashuvlar, ta'lim mazmunini tizimlashtirish va innovatsion metodlardan foydalanish masalalariga e'tibor qaratilgan [11, 3–15-b.]. K.J. Riskulova esa bo'lajak ingliz tili o'qituvchilarining sotsiolingvistik kompetentligini shakllantirish tizimini ishlab chiqib, pedagogik mahorat, didaktik bilimlar va o'qitish ko'nikmalarining o'zaro bog'liqligini asoslagan [12, 67–87-b.].

Modul asosida o'qitish g'oyasi dastlab B.F.Skinner asarlarida e'tirof etilgan bo'lsa, so'ngra M.Goldshmid, J.Rassel, G.Ouyens va boshqalar nazariy jihatdan asoslab berishdi, keyinchalik u yanada rivojlantirildi. Ta'lim muassasalari faoliyatini texnologiyalashtirishning nazariy asoslarini yaratishga oid xorijda, O'zbekistonda ham muayyan ishlar amalga oshirildi. Masalan, V.V.Slastenin, G.K.Selevko., M.V.Klarin, A.K.Kolechenko, V.V.Serikov, M.O.Ochilov., H.Caidahmedov., H.H.Azizxo'jayeva., N.M.Egamberdiyeva va boshqa olimlar tomonidan yangi pedagogik texnologiyalar, xususan, modulli ta'lim texnologiyalarini o'quv jarayoniga tatbiq etish samaralarini o'rganish, yangi texnologiyalardan foydalanish imkoniyatlarini topishga qaratilgan faoliyat olib borilmoqda.

Ular o'z ilmiy izlanishlari natijasida o'qitish jarayonining ilmiy-texnik taraqqiyot darajasidan orqada qolishning asosiy sababi – o'quv-dasturiy hujjatlarning fan-texnika yutuqlari va ishlab chiqarishni tashkil etish texnologiyasi takomillashuviga mos ravishda takomillashib bormayotganligidadir, degan xulosaga kelishgan. Shu bilan birga, o'quv-dasturiy hujjatlarini modulli qoida asosida tuzish ta'lim jarayonini jadallashtirishning muhim omillaridan biri ekanligi ham ta'kidlangan. Bizningcha ham, modulli o'qitish texnologiyasi majmuali yondashuvni ifodalaydi. Modul – bu o'quv axborotining mantiqiy ajratilgan qismi bo'lib, u bir butun, tugallangan mazmun va o'zlashtirish nazoratidan iborat. Modul umumiy faoliyatga kirishish, umumiy maqsad doirasida muntazam ongli ishlashga imkoniyat yaratadi.

Tadqiqot metodologiyasi

Mazkur maqolada gibrid ta'lim muhitida talabalarning ingliz tilidan diskursiv kompetensiyasini rivojlantirishda modulli ta'lim texnologiyalaridan foydalanishning metodik asoslari yoritiladi. Jarayonda tizimli, kompetensiyaviy, integrativ va modulli yondashuvlardan foydalanilib, o'quv materiallarini mazmunan modullarga ajratish, auditoriya va mustaqil ta'lim faoliyatini uyg'unlashtirish tamoyillari asos qilib olindi. Shuningdek, videomateriallar, interaktiv topshiriqlar, taqdimotlar, kommunikativ mashqlar, muammoli vaziyatlar hamda individual topshiriqlarni qo'llash orqali talabalarning lingvistik, pragmatik va kommunikativ ko'nikmalarini rivojlantirishga yo'naltirilgan metodik mexanizmlar belgilandi. Talabalarning o'zlashtirish darajasini aniqlashda test, mustaqil ish, videotaqdimot va diskursiv tahlil usullaridan foydalanish nazarda tutildi.

Natijalar

Fanni modulli ta'lim texnologiyasida o'qitishning mazmuni: unga o'qitish maqsadlari – umumiy va aniq maqsadlar; o'quv materialining mazmuni; jarayonli qismida esa texnologik jarayon: o'quv jarayonini tashkil etish; talaba o'quv faoliyati usul va shakllari; o'qituvchi ishining usul va shakllari; materialni o'zlashtirish jarayonini boshqarish bo'yicha o'qituvchi faoliyati va o'quv jarayoni tashxisidan iborat bo'ladi. Ta'lim jarayonini modullar asosida loyihalashtiriladi. Unda talabalarning fan dasturi asosida mustaqil ta'lim olishlariga alohida urg'u beriladi, uni tashkil etish mexanizmi gibrid ta'lim muhitida talabalarning ingliz tilidan diskursiv kompetensiyasini modulli ta'lim asosida amalga oshiriladi. Modulli ta'lim asosida mazkur fanning o'quv dars mashg'ulotlari loyihalari tuzib chiqiladi. "Ingliz tili o'qitish metodikasi" fan moduliga ma'ruza, amaliy, seminar dars mashg'ulotlarining loyihasiga belgilab qo'yiladi. Natijada, talaba o'ziga muhim bo'lgan bilimlar miqdorini egallaydi.

Dars mashg'ulotning har bir bosqichida nazoratning turli usullari qo'llaniladi: o'qituvchi tomonidan nazorat, o'zaro nazorat, o'z-o'zini nazorat qilish. Bularning hammasi talabalarning faollashishiga ko'maklashadi. Modulli ta'lim texnologiyasi talabaning o'qish jarayoniga Kognitiv-pragmatik yondashuvi va ijodiy munosabati bilan nazariya va amaliyotni o'rganish bo'yicha kompleks faoliyatini mujassamlashtiradi. O'qituvchi o'zining fani bo'yicha 4-5

varaqli fan dasturini, ya'ni "sillabus"ni tayyorlaydi va uni semestr boshida talabalarga taqdim etadi. Fan dasturi o'zida ushbu fanning maqsadlari, uning o'quv dasturida tutgan o'rni, talabaning kelajakdagi kasbiy faoliyati uchun ahamiyati, talabalar ushbu fanni o'rganish natijasida nimalar qila olishi, ushbu fan bo'yicha semestr davomida o'rganiladigan mavzular, talabalar foydalanishi zarur va mumkin bo'lgan adabiyotlar ro'yxati, baholash mezonlari haqidagi ma'lumotlarni qamrab oladi. Bo'lg'usi ingliz tili o'qituvchilari dastur profili yordamida dastur davomida o'zlarida qanday jihatlar shakllanishi haqida oldindan tushunchaga ega bo'ladilar va shu "xarita" asosida harakat qiladilar. Talabalar modul materiallarini oldindan o'zlashtira boradilar. Modulning amaliy dars mashg'ulotlari ma'ruzalar bilan birga tuziladi.

Talabalar ma'ruzalar mazmunini o'rganiladigan yangi material bilan to'ldira borishadi hamda modul bo'yicha amaliy ko'nikmalarga ega bo'ladilar. Ma'ruzalar matnini tayyorlashda mavzuga mos to'g'ri va ilmiy rejalar tuzish, tarkibini aniqlashtirish va tizimlashtirish, ilmiylik, izchillik, sistemalilik, nazariyani amaliyotga bog'lash kabi prinsiplarga amal qilinsa hamda materiallarni taqdimot-slaydlar, blok-sxemalar, jadvallar, rasmlar bloki, videolavhalar yoki grafik organayzerlar ko'rinishida yoki mavzu xususiyatidan kelib chiqib, ular uyg'un holda taqdim etilsa, talabalarning beriladigan ma'lumotlarni o'zlashtirish samaradorligi oshadi. Chunki bu jarayonda modulning maqsadi tushunib yetiladi; o'quv materialining elementlari orasidagi bog'lanishlar va uning asosiy jihatlari ajratib ko'rsatiladi; o'quv materialining (modulning) butun hajmi talabaning ko'z oldida gavdalanadi. "Ingliz tili o'qitish metodikasi" moduliga – ta'lim berish, tarbiyalash, o'qitishdan ko'zlangan maqsadlar va natijalarga nisbatan muayyan mantiqiy tugallikka ega bo'lgan o'quv fani (kursi) qismlarining majmuasi sifatida yondashiladi. Uning tarkibi quyidagicha bo'lishi mumkin:

Fanning namunaviy dasturi, ishchi-o'quv dasturi, texnologik xaritasi, kalendar rejasi, nazariy va amaliy darslar rejasi, ma'ruzalar matni, asosiy tayanch tushunchalar, amaliy mashg'ulot o'tkazish uchun masala-mashqlar, keyslar, testlar, turli metodlarni qo'llash uchun topshiriqlar, mavzular bo'yicha savollar, joriy, oraliq, yakuniy nazorat savollari va baholash mezonlari, mavzular bo'yicha tayyorlangan taqdimot-slaydlar, blok-sxemalar, jadvallar, rasmlar bloki, videolavhalar, grafik organayzerlar va boshqa namoyish etiluvchi materiallar, amaliy ish o'yin usullari, fandan kurs ishi mavzulari, adabiyotlar ro'yxati, yozma ish savollari va boshqalar. Fanning xususiyati va qo'yilgan maqsaddan, mutaxassislarni tayyorlashda fanning tutgan o'rnidan kelib chiqqan holda mazkur ro'yxat qisqarishi yoki qo'shimchalar qo'shilishi mumkin [14, 7-14-b].

"Ingliz tili o'qitish metodikasi" moduli ham nazariya, ham amaliyot talab qilgani uchun uni yaratishda ilmiylik, tarixiylik va zamonaviylik, gumanizm va milliylik, izchillik, nazariya bilan amaliyot birligini ta'minlash, raqobatbardoshlik, innovatsion o'zgarishlarni hisobga olish kabi tamoyillarni e'tiborga olish zarur hisoblanadi. [2, 277-279-b].

Riskulova K.J. "Bo'lajak ingliz tili o'qituvchilarining sotsiolingvistik kompetentligini shakllantirish tizimida quydagicha mezonlarga tavsif bergan. Birinchi mezon – pedagogning shaxsiy fazilatlari. Pedagogning shaxsiy fazilatlari, xislatlari uning ta'lim oluvchilar oldida obro'sini belgilaydi, ta'lim berish va tarbiyalay olish mahoratiga ta'sir ko'rsatadi. Bu mezon har bir o'qituvchining tabiat bergan fazilatlaridan kelib chiqib, uning o'z ustida tinimsiz ishlashi, ijodiy mehnati jarayonida shakllanadi, rivojlanadi. Ikkinchi mezon – yetarlicha didaktik bilim. U o'z ichiga bilishga oid sohalarni o'rganish darajasi, o'quv maqsadi va boshqa maqsadlarni qo'ya bilish, darsni rejalashtirish, (loyihalashtirish), qo'llaniladigan metodlarni aniqlash, vaqt taqsimotini belgilash, muammoli savollar qo'ya olish, bajariladigan ishlar tartib-qoidalarini ishlab chiqish, topshiriqlar tayyorlash kabilarni o'z ichiga oladi. Uchinchi mezon – o'qitish, o'rgatish ko'nikmasi bo'lib, samarali strategiya, usullar, metodlar, topshiriqlar yordamida talabalarni fanni o'rganishga jalb eta olishdir. Pedagog-o'qituvchi o'z oldiga qo'yilgan mas'uliyatli va dolzarb vazifalarni bajarish hamda ta'lim-tarbiya jarayoniga bo'lgan yangicha qarashlarni shakllantirish uchun quyidagi xislatlarga ega bo'lishi kerak: zamonaviy ilmiy, madaniy va innovatsion texnologik taraqqiyotning mohiyatini chuqur tushuna bilishi; dunyo va inson haqidagi bilimlar tizimini chuqur va keng nuqtayi nazardan anglashi; kompyuterli ta'lim va o'qitishning boshqa texnik vositalarini ta'lim-tarbiya jarayoniga tatbiq etishi; internet tarmog'idagi axborotli texnologiya mazmunini teran tahlil qila bilishi; pedagogik mehnatning samaradorligini tahlil etish usullarini bilishi; umuminsoniy hamda milliy madaniyat va qadriyatlar, milliy g'oya va milliy mafkura hamda iqtisodiy, ma'naviy-ma'rifiy islohotlar mohiyatini to'liq tushunib yetishi;innovatsion pedagogik texnologiyalar mohiyati va tamoyillari hamda uning an'anaviy o'qitish jarayonidagi afzalliklarini bilishi; talabalarga o'z fani bo'yicha ta'lim berishda innovatsion texnologiyalarni qo'llay olishi, o'quv jarayonini faollashtirish hamda o'quv materiallarini o'zlashtirishning yuqori darajasiga erishish, talabalarni mustaqil fikrlashga va fikrlarini erkin bayon etishga o'rgatishi; o'z fanining mohir ustasi va fidoyi bo'lishiga erishishi; talabalarning barkamol inson bo'lishi uchun ularga o'zining izlanishlari, ijodkorligi orqali ta'lim-tarbiya berishi [12, 67-87-b].

Bugungi zamonaviy ta'lim tizimida faol tarzda qo'llanilayotgan "Innovatsion yondashuvlar nzariyasi va amaliyoti", "Innovatsion faoliyat natijasi", "Innovatsion didaktik yondashuv" tarzdagi tushunchalar ehtiyojlardan kelib chiqqan. Nunan D. ning fikrcha ularning maqsadi ta'lim sohasida o'quv-tarbiya jarayoni sifatini kafolatlaydigan o'zgarish, yangilanishlar kiritishdan iborat. Ta'lim tizimini isloh qilish masalalari bilan bog'liq ravishda tayyor axborotlarni berishga asoslangan an'anaviy o'qitish turidan, innovatsiyalarni o'rganish, uni ta'lim jarayoniga, talabalarni izlanishga, ma'lumotlarni o'zlari izlab topishga o'rgatadigan jarayonlar kabi tushunchalar mohiyatini anglashga ehtiyoj kuchaymoqda. Innovatsion jarayonlar quyidagi bosqichlarga ajraladi: Yangi g'oyalarning tug'ilish, yangilanish konsepsiyasining paydo bo'lish bosqichi [4, 10-b].

G.T.Mahkamova bu fundamental va amaliy izlanishlar natijasi tarzida tilni rivojlantirishni yangilik yaratish deydi. Yaratish bosqichi. Ma'lum obyektda amalga oshirilgan yangilik, moddiy, ma'naviyat, namuna. Yangilik kiritish bosqichi. Yangilik amaliyotga tatbiq etiladi, qayta ishlanadi. Kiritilgan yangilikdan yuqori samaraga erishish bilan bu bosqich yakunlanadi. Yangilikning mustaqil harakatlanishi. Yangilik qo'llanilish jarayonida yana o'zgaradi, boshqa bosqichlarga ajraladi. Yangilikning hayotga tatbiq etish bosqichi. Yangilikning boshqa sohalarda ham namoyon bo'lishi. Ma'lum bir sohada yangilikning turg'un xizmat qilish bosqichi. Yangilikni qo'llash davomida u o'zining boshqa yangilik xususiyatini ochib boradi. Mazkur bosqich yangilik o'rniga undan ham samarali yangiliklarni tatbiq etish bilan yakunlanadi. Bir yangilik o'rnini undan ham samaraliroq bo'lgan boshqasi egallaydi. Yangilikni boshqa yangilik bilan almashtirish natijasida yangilik ko'lamining qisqarishi [13, 45-52-b].

Muhokama

Ingliz tili modulli ta'limining maqsadi ham barcha ta'lim texnologiyalari singari davlat standartiga tayanadi. Mazkur ta'lim texnologiyasining maqsadi qancha aniq bo'lsa, unga erishish darajasi shuncha oson bo'ladi. Ushbu bosqichdagi dastlabki vazifa – o'quv materiali mazmuni va undagi muhim jihatlarni anglash, umumlashtirish, ularni talaba hayoti bilan bog'lashga yo'naltirish, o'qituvchi va talaba munosabatlari tabiatini belgilab olishdan iboratdir. Ingliz tili ta'limi jarayonida gibrid ta'lim muhitida talabalarning ingliz tilidan diskursiv kompetensiyasini modulli ta'lim texnologiyasidan foydalanish samaralarini asoslash uchun

mazkur yo‘nalishning o‘ziga xos xususiyatlarini quyidagi jadvalda ko‘rsatiladi Yuqoridagi qiyosiy tahlildan ham ma’lum bo‘lyaptiki, texnologik ta’limda ham, tadqiqiy-ijodiy ta’limda ham, ayniqsa, modulli ta’limda o‘qituvchining e’tibori ko‘proq ta’lim oluvchiga, uning o‘z ustida mustaqil ishlashi hamda o‘z o‘zini nazorat qilishga qaratiladi.

N.X.Kushiyevaning ingliz tili modulli ta’lim texnologiyasini gibrid ta’lim muhitida talabalarning ingliz tilidan diskursiv kompetensiyaviy yondashuv bosqichlarini ishlab chiqdik. Mazkur fan bo‘yicha ushbu texnologiya quyidagi bosqichlardan iborat bo‘ldi:

I bosqich. “Ingliz tili o‘qitish metodikasi” fanining o‘quv rejasidagi makromodulga kiruvchi fanlarning o‘quv dasturlari orasidagi o‘zaro bog‘liqligini o‘rganish.

II bosqich. “Ingliz tili o‘qitish metodikasi” fanining modulini tuzish.

III bosqich. Modulning ma’ruza matnini yaratish.

IV bosqich. Modulning o‘quv-ko‘rgazma qurollari, tarqatma materiali, taqdimot-slaydlarini ishlab chiqish.

V bosqich. Modullarga ajratib o‘qitish tamoyillari asosida o‘qitish texnologiyasini loyihalash, ya’ni texnologik xarita ishlab chiqish.

VI bosqichda bir vaqtning o‘zida o‘rgatilayotgan fanning soatlari sonini hisobga olib, mashg‘ulot jadvalini tuzish.

VII bosqich. Modul bo‘yicha talabalar bilimini nazorat qilish uchun testlar, individual va mustaqil ishlar uchun topshiriqlar, o‘quv-uslubiy, o‘quv-ilmiy adabiyotlar ro‘yxatini tayyorlash.

VIII bosqich. Modul uchun tarqatma va tasvirli materiallar to‘plami tuzish hamda ularni mashg‘ulotdan oldin berish. Talabalarni tavsiya qilinadigan adabiyotlar ro‘yxati bilan ta’minlash [11, 3-15-b].

Modulli ta’lim texnologiyasi ingliz tili ta’limida ta’limning belgilangan tamoyillariga muvofiq tarzda rejalashtiriladi va amalga oshiriladi. Bunda motivatsiya (talabaning bilishga bo‘lgan ichki ehtiyoji), modullilik, muammolilik, hamkorlikka asoslanish, didaktik o‘yinlar, audio-vizual va hk. tamoyillar nazarda tutiladi. Modulli ta’lim muhitida “Ingliz tili o‘qitish metodikasi” fanini o‘qitishga Gibrid ta’lim muhitida talabalarning ingliz tilidan diskursiv kompetensiyaviy modulli o’qitishdan maqsad ta’lim maqsadi, mazmuni, usul va shakl hamda vositalarini talabaning ehtiyojlarini hisobga olgan holda bugungi globallashuv va ziddiyatli davrda ta’lim jarayonlarini uyg‘unlashtirishdan iborat.

1-jadval

Gibrid ta’lim muhitida ingliz tilidan diskursiv kompetensiyani rivojlantirishga yo‘naltirilgan modulli ta’lim texnologiyasining tarkibiy bosqichlari

№	Modulli ta’lim bosqichlari	Mazmuni va diskursiv kompetensiyani rivojlantirishga yo‘naltirilgan faoliyat
1	O‘quv dasturini tahlil qilish	Ingliz tili o‘qitish metodikasi fanining mazmunini tahlil qilish, fanlararo integratsiya va diskursiv kompetensiya komponentlarini aniqlash.
2	Modulni shakllantirish	Talabalarning lingvistik, sotsiolingvistik va pragmatik bilimlarini rivojlantirishga yo‘naltirilgan o‘quv modullarini ishlab chiqish.
3	O‘quv materiallarini yaratish	Diskurs, matn tuzilishi, nutqiy strategiyalar va kommunikativ vaziyatlarga oid ma’ruza materiallarini tayyorlash.
4	Audiovizual resurslarni ishlab chiqish	Videomatnlar, videodarslar, taqdimotlar va interaktiv topshiriqlar orqali talabalarning nutqiy faoliyatini faollashtirish.
5	O‘qitish texnologiyasini loyihalash	Gibrid ta’lim sharoitida auditoriya va mustaqil ta’lim faoliyatini uyg‘unlashtiruvchi texnologik xaritani ishlab chiqish.
6	O‘quv mashg‘ulotlarini tashkil etish	Sinxron va asinxron mashg‘ulotlar asosida dialog, munozara, taqdimot va muammoli kommunikativ vaziyatlarni tashkil etish.
7	Bilim va kompetensiyalarni nazorat qilish	Testlar, individual topshiriqlar, videotaqdimotlar va diskursiv tahlil orqali talabalarning kompetensiya darajasini baholash.
8	Mustaqil ta’limni tashkil etish	Videomatnlarni mustaqil tahlil qilish, mazmunni qayta bayon etish, dalillash va mustaqil diskurs yaratish ko‘nikmalarini rivojlantirish.

Jadvaldan ko‘rinadiki, modulli ta’lim texnologiyasini gibrid ta’lim muhiti bilan integratsiyalash ingliz tilidagi diskursiv kompetensiyaning lingvistik, pragmatik va kommunikativ tarkibiy qismlarini izchil rivojlantirish imkonini beradi. Bunda videomatnlar o‘quv mazmunini boyituvchi, real kommunikativ vaziyatlarni modellashtiruvchi hamda talabalarning mustaqil diskurs yaratish faoliyatini qo‘llab-quvvatlovchi didaktik vosita sifatida namoyon bo‘ladi.

“Ingliz tli o‘qitish metodikasi” modulini ishlab chiqishda ta’limning konseptual asosi e’tiborga olinadi. Unda ta’limning nazariy g‘oyalari va umumiy xulosalari hisobga olinib, ta’lim maqsadlariga erishishning falsafiy, psixologik, didaktik va ijtimoiy-pedagogik asoslarini o‘z ichiga oluvchi ilmiy kontseptsiyaga tayaniladi. Chunki mazkur modul yuqori darajadagi yaxlitlik tizimida o‘quv mazmuni va uni o‘zlashtirish texnologiyasini birlashtiruvchi maqsadli funksional tarmog‘i hisoblanib, olingan bilim va ko‘nikmalarni majburiy tarzda nazorat qiluvchi o‘quv materiali hamda bilimlarni nazorat qilish bilan uyg‘unlashgan, tugallanganlikka ega o‘quv axborotidagi mantiqiy belgilangan qismdir. Moduldan aniq maqsadni ko‘zda tutib, obyektlarning muhim jihatlarini mantiqan tugal holda yorituvchi o‘quv materialining didaktik birligi hamda unga tegishli metodik materiallar bilan birgalikdagi ta’lim mazmunli qismi sifatida ham tushuniladi

“Ingliz tili o‘qitish metodikasi” fanini modul asosida o‘qitishning mohiyati shundan iboratki, ta’lim oluvchi (talaba) o‘ziga taqdim etilgan individual o‘quv dasturi (sillabus) asosida mustaqil ish olib boradi. Bu o‘quv dasturida harakatlarning rejasi, axborotlar blogi, o‘qitish natijalariga erishish bo‘yicha metodik tavsiyanomalar bo‘ladi. O‘qituvchi modulli ta’lim muhitida nazorat qilish, maslahat berish, axborotlarni o‘zlashtirish bo‘yicha harakatlarni muvofiqlashtirish vazifalarini bajaradi [3, 52-75-b].

Xulosa

Xulosa sifatida shuni aytish lozimki, mazkur jarayonda profesor-o‘qituvchi talabalarga paydo bo‘lgan qiyinchiliklarni yengishga yordam beradi. O‘qituvchi yordamining asosiy mohiyati innovatsion usul, metod, texnologiyaning tavsifi, uning maqsadga yo‘naltirilganligi, shuningdek, bo‘lg‘usi kasb egasini shakllantirish va tarbiyalash jarayonida hal etiladigan vazifalar bilan ifodalanadi. Innovatsion pedagogik jarayonning muhim yo‘nalishlaridan yana biri talabalarning bilish faoliyatini rivojlantirish hisoblanadi. Bunday yo‘nalish talabalarning o‘quv jarayonini takomillashtirishni, ularning kasbiy ixtisoslashishini aniqlab olish faolligini o‘z ichiga oladi. Talabalarning innovatsion faoliyatini yaratuvchilik jarayoni va ijodiy faoliyat sifatida baholash mumkin. O‘qituvchi va talaba o‘rtasidagi muloqotning o‘zgarishi innovatsion

faoliyat shartlaridan biridir. Pedagogik yangilik faoliyatining subyekti o‘qituvchi va uning shaxsiy imkoniyati, qobiliyati hisoblanadi. Bunda o‘qituvchi shaxsining ijtimoiy, intellektual, axloqiy imkoniyatlari ahamiyatli hisoblanadi. Innovatsion jarayonning mohiyati – o‘qituvchi va talabalarning birgalikdagi faoliyati mazmunida aks etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. Irisqulov M.T. Tilshunoslikka kirish. –T.: O‘qituvchi,1992. –256 b.
2. Jalolov J.J. Chet tili o‘qitish metodikasining nazariy asoslari. – T.: O‘qituvchi, 2012. – 432 b.
3. O‘.Xoshimov. Ingliz tili o‘qitish metodikasi. – T.: 2003. – 210 b.
4. Nunan D. Task-Based Language Teaching. – Cambridge.: Cambridge University Press, 2019. – P. 10.
5. Rivers V. Chet tili o‘qituvchisi uchun qo‘llanma. – Kembridj.: Kembridj universiteti nashriyoti, 1968. – 403 b.
6. Bonk N.A. (1997). Metodika prepodavaniya angliyskogo yazyka.
7. А.А.Миролюбов. Методика обучения иностранным языкам// Традиции и современность. - 2010. -464 с.
8. Н.Д.Галсьскова. Теория обучения иностранным языкам-М.:2006-81с.
9. Н.И.Гез.Лингводидактика и методика:учеб, пособие для студ. Лингв.ун-тов и фак, иняз. Высш.пед.учеб.заведений.
10. Edvard Entoni (E. Anthony). “English Language Teaching” 17 (63–67-p) 1963.
11. N.X.Kushiyeva. Talabalarga ingliz tilini o‘qitishda klasterli yondashuv xususiyatlari.: Avtoreferat.dok.filosofii (PhD). – T.: 2020. – 49 b.
12. Riskulova K.J. “Bo‘lajak ingliz tili o‘qituvchilarining sotsiolingvistik kompetentligini shakllantirish tizimi: ped.fan.dok...diss.-T.: O‘zDJTU, 2017. 260 b.
13. G.T.Mahkamova. Ingliz tilini o‘qitishda innovatsion pedagogik texnologiyalar. – T.: 2023.145-b.
14. K. Sh. Muradkasimova. Chet tillarni baholash kompetensiyasi: amaliyotdagi holat va ehtiyojlar. pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD). O‘zbekiston davlat jahon tillari universiteti. – 83 bet.
15. Xyuza X.R. Chet tilini o‘rganish psixologiyasi. – London: Oxford University Press, 1931. – 286 b.
16. Dipkel X. Til o‘rganish strategiyalari va ularning samaradorligi. – Berlin: Springer, 1958. – 174 b.
17. Kerrol Dj. Til va fikrlash: psixologik yondashuv. – Nyu-York: Wiley, 1964. – 351 b.